

AVTOMOBIL TERMINOLOGIYASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yuldasheva Mastona Muxubillayevna

tayanch doktorant

Namangan davlat universiteti

E-mail:yuldashevamastona@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada avtomobil sohasiga oid terminologiyaning kirib kelish jarayoni haqida so‘z yuritilgan. Termin tushunchasi, olimlarning ilmiy qarashlari, so‘zning ishlatilishi o‘z ifodasini topgan. Shu sohaga oid terminologiyaning rivojlanish bosqichlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: qiyosiy tahlil, prototip, tipologiya, elektronika, avtoservis, omonimlashuv, evolyutsiya.

DISTINCTIVE FEATURES OF CAR TERMINOLOGY

Yuldasheva Mastona Mukhubillayevna

Base doctorate

Namangan State University

Abstract: This articles describes process of entrance auto lexical terms. Semantic and lexical features of the terms, the scientific views of the scientific is reflected in the using of the words. The development stages of the terminology related to this field are also discussed.

Key words: comparative analysis, prototype, typology, electronics, service, homography, evolution.

ОСОБЕННОСТИ АВТОМОБИЛЬНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Юлдашева Мастона Мухубиллаевна

Базовый докторант

Наманганский Государственный Университет

Аннотация. В этой статье рассказывается о процессе внедрения терминологии, относящейся к автомобильной промышленности. Понятие термина, научные взгляды ученых, употребление слова нашли свое

выражение. Также упоминаются этапы развития терминологии, относящейся к этой области.

Ключевые слова: сравнительный анализ, прототип, типология, электроника, автосервис, омонимизация, эволюция.

KIRISH.

Fan, texnika va texnologiyalar, ishlab chiqarish, ijtimoiy hayot va madaniyatning yangi obyektlari va tushunchalarini belgilash uchun juda ko'p sonli so'z va iboralarning paydo bo'lishi xalqaro ilmiy hamkorlikning faollashishi, inson faoliyatining turli sohalarida ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va berishni avtomatlashtirish talablari, bir qator terminologik muammolarni o'rganish va hal qilish zarurligini talab qiladi.

Shunday ekan hozirgi kunda eng rivojlangan saholardan biri avtomobilsozlik va unga oid so'z va birikmalarni ishlatilishi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish tilshunoslarni oldidagi eng katta vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Avtomobil terminologiyasi kommunikativ va madaniy-tarixiy jihatdan muhim bo'lgan leksik tizimdir. Avtomobil sanoatiga bog'liq bo'lgan atamalar ya'ni sohaga oid terminnologiya tipologiyasi B.N.Golvin tomonidan o'rganilgan [Golovin 1981: 3]. Boshqa har qanday sanoat terminologiyasi singari, avtomobil terminologiyasi ham o'ziga xosdir. Mazkur terminologiya o'n yildan ko'proq vaqt davomida shakllangan atamalar tizimidan iborat.

Avtomobilga oid so'zlar XIX-XX asrlar davomida, texnologiyaning jadal rivojlanishi va umumiy sanoatlashtirish davrida paydo bo'lgan. I.N. Pozdnisheva o'zining "Ingliz, fransuz va rus tillarida avtomobil terminologiyasi tizimlarining qiyosiy tahlili" asarida avtomobil terminologiyasini diaxronik tadqiq qiladi, uning evolyutsiyasini maxsus manbalar: darsliklar, ensiklopediyalar, tarixiy maqolalar, jurnallar asosida kuzatib boradi.

TADQIQOT METODOLGIYASI.

Maqolada avtomobilga oid terminlarni rivojlanish bosqichlari tavsiflanadi. Avtomobilga oid ayrim soz'larni tahlil qilinadi va ba'zi tillar bilan solishtiriladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

I.N. Pozdnisheva shartli ravishda avtomobil terminologiyasining rivojlanishida to'rtta tarixiy davrni ajratib ko'rsatadi:

- 1889 yilgacha bo'lgan *birinchi davr* - ushbu davrda avtomobillarning prototiplarini yaratishga urinishlar bo'lib, birinchi transport vositalarining paydo bo'lishiga turtki bergan asosiy komponentlar va agregatlar ixtiro qilindi.

- *Ikkinchi davr* 1889-1934 yillar - avtomobilning asosiy tizimlarini ishlab chiqish va takomillashtirish davri; bu davr avtomobil ishlab chiqarishning o'sishi bilan tavsiflanadi.

- *Uchinchi davr* 1934-1975 yillar - birinchi old g'ildirakli avtomobilning paydo bo'lishi bilan izohlanadi.

- *To'rtinchi davr* 1975 yildan - hozirgi vaqtgacha bo'lgan davr. Mazkur davrning asosiy ajralib turadigan xususiyati elektronikaning paydo bo'lishi va avtomobilning xavfsizligi, ekologik tozaligi va qulayligi jihatlarining ortib borishidir [Pozdnisheva 2007: 56-76].

Avtomobil transporti terminologiyasiga oid mavjud ishlarni tahlil qilinib, (L.I.Voskresenskaya 1980, N.P.Tomasevich 1984, O.I.Pavlova 1985, Y.A.Chuntomova 2004, I.E.Korotaeva 2007, I.N.Pozdnisheva 2007) avtotransport terminologiyasining asosiy bosqichlarini quyidagilar etib tavsiya etish mumkn.

- *ochiqlik* ~ avtomobil terminologiyasi atamalarni boshqa fanlardan oladi[1]. Ko'pgina hollarda, bir terminologiyaning birliklari boshqa sohada tasodifan emas, balki ushbu fan yoki texnologiyaga boshqa "do'stona fan" g'oyalari, tushunchalari, usullarini kiritish natijasida paydo bo'ladi [Pavlova 1985: 29].

Bu o'rganilayotgan avtomobil terminologiyasiga to'liq taalluqlidir, chunki texnologiya doimo ko'plab fanlarning sa'y-harakatlari jamlangan sohadir. Turli fanlar va texnologiya sohalarining integratsiyasi va sintezi bizning davrimizga juda xos bo'lib, bu muqarrar ravishda ko'plab sohalar terminologiyalarining o'zaro singib ketishiga olib keladi;

- *rivojlanish dinamizmi* - avtomobil terminologiyasi jadal rivojlanib bormoqda, chunki biz yaqindagina yaltiroq jurnallar sahifalarida o'qigan

avtomobillar muomalaga kirib ulgurmoqda va shu bilan birga terminologiyaning leksik fondi doimiy va dinamik ravishda to'ldirilishi kuzatilmoqda.

- *keng iste'mol doirasi* - avtomobil terminologiyasi asosan ushbu transport turining mashhurligi va keng tarqalganligi va undan maishiy foydalanish tufayli aholining keng doirasiga ma'lumdir. U nafaqat professional haydovchilar, balki havaskor avtoulovchilar, avtoservis xodimlari, jamoat transporti yo'lovchilari, avtomobilizmdan uzoqda bo'lgan insonlar tomonidan ham qo'llaniladi, shuningdek, maxsus ommaviy axborot vositalarida[2] va badiiy matnlarda ham foydalaniladi[3].

MUHOKAMA.

Jamiyatning global avtomobillashuvi munosabati bilan avtomobil terminologiyasi tilning turli funksional uslublariga - og'zaki nutq, publissistika, badiiy adabiyot va hatto she'riyatga kirib boradi va tilning ommabop iste'mol lug'ati bilan chambarchas uyg'unlashib ketadi.

Natijada, kundalik va kasbiy nutqda uchraydigan va terminologik lug'atni til lug'atidan ajratishda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan leksik birliklar bo'lgan "konsubstansional" atamalar muammosi yuzaga keladi [Grinev 1993: 27].

Avtomobil terminologiyasida umumiy adabiy tilning ko'plab semantik qayta ko'rib chiqilgan so'zlari qo'llaniladi, bu yerda leksik ma'no ixtisoslashgan yoki boshqacha qilib aytganda, umumiy iste'moldagi so'z atamalar toifasiga "o'giriladi", ya'ni uning terminologizatsiyasi yuz beradi.

Shunday qilib, tadqiq qilinayotgan terminologiya tarkibida biz ikkita atamalar guruhini ajratamiz:

- tor darajada ixtisoslashgan avtomobil atamalari (ular ancha tor doiraga ega, atama birliklarining ma'nosi ko'pincha professional bo'lmagan til tashuvchilari uchun tushunarsiz, so'zlar bir ma'noli bo'ladi);
- keng iste'moldagi terminlar.

Masalan, nemis tilida keng tarqalgan *Luft* (fr.)so'zi *havo*, *shamol* degan ma'noni anglatadi, avtomobil terminologiyasida esa bu *bo'shliq*, *erkin harakat* degani. Ko'p qo'llaniladigan *Licht* (n) so'zining asosiy ma'nosi *nur*, *yorug'lik*

bo'lib, o'rganilayotgan terminologiyada bu *signal olovini* anglatadi. Ko'p ishlatiladigan *Spiel* so'zi - *o'yin, o'yin-kulgi* ma'nosini bersa, avtomobil terminologiyasiga *sikl, bo'shliq* ma'nosi bilan kiritilgan.

Rus tili terminologiyasida ham misollar mavjud: : крыша (кузова), колесо, дверь, окно, горючее, топливо, тормоз, газ (tom (kuzovning), g'ildirak, eshik, deraza, yoqilg'i, yonilg'i, tormoz, gaz) va boshqalar.

Bu leksik birliklarning paydo bo'lishi haqida turlicha fikrlar mavjud. Masalan, V.P. Danilenko ularni umumiy adabiy tildan o'zlashtirish natijasida paydo bo'lgan deb hisoblaydi: "natijada "omonimlashuv" jarayoni ya'ni aslida boshqa so'zning yaratilishi sodir bo'ladi [Danilenko 1977: 28-30].

L.M.Alekseyevaning so'zlariga ko'ra, "terminologiya tabiiy til asosida yaraladi. Semiotik tizim bo'lgan til nafaqat kod sifatida xizmat qilish, balki qayta kodlash qobiliyatiga ega, ya'ni, terminologiya tabiiy til (yoki uning quyi tizimlaridan biri) faoliyatining ikkilamchi sohasini o'zida aks ettiradi" [Aleksееva 1998: 31].

XULOSA.

Ko'pgina tilshunoslarning fikricha, umumiy va maxsus lug'atni aniq ajratish imkonsizdir. Ushbu ikki qatlam o'rtasida doimiy almashinuv (integratsiya) mavjud. Aynan shuning uchun ham umumiy adabiy so'zlar muayyan terminologiyalarda qat'iy terminologik ma'noga ega bo'lib, ko'plab atamalarning shakllanishiga asos bo'ldi.

Adabiyotlar:

1. Воскресенская Л.И. Смысловая структура английских технических терминов: автореф. дисс. ... канд. филол. наук / Л. И. Воскресенская. - М., 1980. — 22 с.
2. Рогалева О. С. Лингвистические особенности автомобильного дискурса (на примере журнала «За рулём») / О. С. Рогалева // Медиадискурс: новые явления и новые подходы: коллективная монография / под. ред. Н. А. Кузьминой.- Омск, 2010.- 262 с.

3. Воскресенская, Л. И. Смысловая структура английских технических терминов: автореф. дисс. ... канд. филол. наук / Л. И. Воскресенская. - М., 1980. - 22 с.